

BAG'RIKENGLIK JAMIYAT TARAQQIYOTINING ASOSIY OMILI SIFATIDA

Sunnatova Lola Zayniddin qizi

Guliston davlat pedagogika instituti talabasi

ANNOTATSIYA

Maqolada bag'rikenglik tushunchasi, uning jamiyat taraqqiyotidagi o'rni va ahamiyati atroflicha tahlil etiladi. Bag'rikenglik nafaqat turli xalqlar va madaniyatlar o'rtasidagi munosabatlarni yaxshilash, balki jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy rivojlanishida muhim rol o'ynaydigan asosiy omil ekanligi ko'rsatib beriladi. Shuningdek, bag'rikenglikning inson huquqlari, demokratiya, tinchlik va barqarorlikni ta'minlashdagi ahamiyati yoritiladi. Turli mamlakatlar va mintaqalardagi bag'rikenglik namunalari, bag'rikenglikning yuzaga kelishiga ta'sir qiluvchi omillar, shuningdek, bag'rikenglikni rivojlantirish va mustahkamlash yo'llari tahlil qilinadi. Bag'rikenglik tushunchasini yosh avlod ongiga singdirish, jamiyatda bag'rikenglik madaniyatini shakllantirish zarurligi ta'kidlanadi. Bag'rikenglikni rivojlantirish uchun ta'lim tizimi, ommaviy axborot vositalari va jamoatchilik tashkilotlarining o'rni va ahamiyatiga alohida e'tibor qaratiladi.

Kalit so'zlar: bag'rikenglik, tolerantlik, YUNESKO, diniy konfessiyalar, integrallashuv jarayoni, Androvono tarixiy, Normal tarixiy, Milliy Madaniy Markazi.

Bag'rikenglik tamoyillarining ijtimoiy munosabatlar rivojlanishidagi o'rni. Bag'rikenglik – insonlarning bir-biriga nisbatan hurmat sabr-toqat va tushunish hissi bilan yondashishi demakdir. Bu tushuncha asosan jamiyatda tinchlikni saqlash, ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash va insonlar o'rtasida do'stlikni rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Bag'rikenglik, avvalo turli xil fikrlar e'tiqodlar va hayot tarziga nisbatan ochiqlikni anglatadi. Har bir insonning o'ziga xos fikrlash tarziga ega ekanligini tan olish ularni hurmat qilish va uning farovonligini qabul qilish bag'rikenglikning asosiy tamoyillaridan biridir. Bu o'z navbatida ijtimoiy muhitda ziddiyatlarni kamaytirishga yordam beradi. Har hil madaniyatlar, dinlar va millatlar o'rtasida muloqot va hamkorlikni rivojlantirish insonlar o'rtasidagi tushunmovchiliklarni bartaraf etish juda zarurdir. Bu tushuncha orqali biz bir-birimizni yaxshiroq tushunishimiz birgalikda yashash va imkoniyatlarini yaratishimiz mumkin. Shuningdek, ta'lim jarayonida ham muhim rol o'ynaydi. O'quvchilar va talabalar o'rtasidagi bag'rikenglik ta'lim muassasalarida ijobiy muhitni yaratadi. Talabalar o'zaro fikrni, turli nuqtai-nazarlarni hurmat qilish orqali yanada kengroq bilimga ega bo'lishlari mumkin. Insonlar o'rtasida kelib chiqadigan ziddiyatlar va tushunmovchiliklar tabiiydir. Aynan shu tushuncha orqali insonlar bu vaziyatda sabr

bilan yondashib muammolarini hal etishga intilishadi. Ular o'z fikrlarini ifoda etishda va tinglashda muvozanatni saqlashga harakat qilishadi. Shu bilan birga bag'rikenglik faqat shaxsiy munosabatlar bilan cheklanmaydi. U ijtimoiy va siyosiy hayotda ham o'z aksini topadi. Bunga e'tibor berilishi, jamiyatdagi turli guruhlar o'rtasidagi munosabatlarni yaxshilanishiga, fuqorolar o'rtasida tinchlikni saqlashga xizmat qiladi. Bag'rikenglik tamoyillari qanchalik chuqur ildiz otgan bo'lsa shu xalqning turmush darajasi, madaniyati, salohiyati, iqtisodiyoti va qolaversa ijtimoiy muhiti ham rivojlanib takomillashib boraveradi.

Bag'rikenglik tushunchaning yana bir aniq ifodasi tolerantlikdir. Tolerantlik (lotincha tolerantia - sabr-toqat) bu o'zgalarning turmush tarzi xulq-atvori odatlari his-tuyg'ulari fikr mulohazalari g'oyalari va e'tiqodlariga butunlay toqatli bo'lishdir. Tolerantlikni har tomonlama qo'llab-quvvatlash maqsadida YUNESKO xalqaro tashkiloti tomonidan 1996-yil 16-noyabrda "Bag'rikenglik deklaratsiyasi" qabul qilingan va shu kuni "Xalqaro bag'rikenglik" kuni sifatida nishonlanib kelinmoqda. Jamiyatda turli xalqlar, millatlar va dinlarning o'ziga xos xususiyatlariga nisbatan neytral munosabatda bo'lishadi. Yurtimizda ham bu masalaning mohiyatiga jiddiy yondashiladi. Bunga misol tariqasida prizidentimiz Sh.Mirzoyoyevning 2022-yil Oliy Majlis palatalariga yo'llagan murojaatnomasida ham o'z aksini topgan. Murojaatnoma quyidagicha edi: "Millati, tili va dinidan qat'iy nazar O'zbekistonni o'zining vatani deb biladigan uni ravnaqi uchun hissa qo'shib kelayotgan har bir fuqaro bundan buyon ham davlatimiz va jamiyatimiz e'tibori va ardog'ida bo'ladi. Millatlararo do'stlik diniy konfessiyalar o'rtasidagi hamjihatlik ijtimoiy bag'rikenglik muhitini yanada mustahkamlash uchun bor kuch va imkoniyatlarni safarbar etamiz" deya e'tirof etganlar. Ma'lumki, yurtimiz qadimdan madaniyat markazlaridan biri bo'lib kelgan va buni tarixiy misollar bilan yaqqol ko'rish mumkin. "Buyuk ipak yo'li"ning yurtimiz sarhadlaridan o'tganligi so'zimizning isbotidir. Bu yo'l faqatgina iqtisodiyotni rivojlantiribgina qolmay madaniyatni rivojlantirib, boshqa xalqlar bilan murosaga kelib yashashlari oqibatida integrallashuv jarayonini ham tezlashtirib yuborgan.

Tadqiqot natijalarida ma'lum bo'lishicha mil. avv. 3-4-ming yillikdayoq O'rta Osiyo hududi Qadimgi sharq va ko'p hollarda ayni shu hududga mos bo'lgan savdo-sotiq va mol ayirboshlash va madaniy munosabatlar tizimiga kira boshlagan edi. Shu paytda eng qadimiy savdo yo'lining paydo bo'lishi natijasida sharq xalqlari o'rtasida madaniy va iqtisodiy munosabatlar xususan savdo sotiq rivojlanganligini ko'rsatadi. Yuqorida aytib o'tilganidek, bu davrga kelib O'rta Osiyodagi yangi yerlarning aholi tomonidan o'zlashtirish jarayoni jadal tus oldi. Shu vaqtda O'rta Osiyoda yashovchi ko'pdan-ko'p qabila va etnik guruhlar Qoraqurum va Qizilqumning ichki qismidan Pomir va Oloyning yuqori mintaqalaridan tashqari bu hududni o'zlashtirib bo'lgan edilar. Shu hududdagi moddiy madaniyat umumiy tarzda olinganda ikki guruhda chorvachilik xo'jaligiga ega bo'lgan. Androvono tarixiy - madaniy jamoasi (ijtimoiy

zonaga) va dehqonchilik bilan shugʻullanuvchi, Normal tarixiy - madaniy jamoasi (janubiy zonaga) boʻlinar edi. Ular oʻrtasida va qoʻshni boʻlgan hududlar bilan qadimiy yoʻllar orqali turli sohalarda aloqa qilib turar edi. Bu aloqalar chorvador bilan oʻtroq aholi oʻrtasida savdo ayirboshlash munosabatlarini tezda rivojlantirish imkoniyatini yaratdi. Muayyan hududda tayyorlangan mahsulotlarning boshqa yerdan topilishi yoki qadimiy hududlardan topilgan xum-ashyolar shu fikrni ifodalaydi.[1] Bundan koʻrinib turibdiki, savdo aloqalari turmush tarzini ham belgilagan va har xil madaniy qadriyatlarni bir yerdan boshqa yerga koʻchirib kelishiga xizmat qilgan va bunday madaniy qadriyatlar va integrallashuvni faol tarzda XVI asrgacha qadar bizning yurtimizga ham keng yoyishda muhim ahamiyat kasb etgan. Ayni shu davrlardan yurtimizda tolerantlik tushunchalari ildiz otib rivojlanib borgan. Savdo orqali boshqa din, til va madaniyat kirib kelgan va xalqimiz bu holatga ijobiy yondashgan. Mamlakatimiz qadimdan to shu kunga qadar bagʻrikeng va mehmondoʻst xalq boʻlib shakllanganligi esa hech kimga sir emas. Bugungi kunda Oʻzbekistonda 137 millat va elat 16 ta diniy konvensiya vakillari oʻzaro hamkorlik va hamjihatlikda yashab kelayotgan buning yaqqol isboti sifatida namoyon boʻladi. Shu oʻrinda bizning bosh qomusimiz: Konsititutsiyamizda ham bagʻrikenglik va vijdon erkinligi belgilab qoʻyilgan. Xususan, Konsititutsiyamizning 8-moddasida shunday deyilgan: Oʻzbekiston xalqini millatidan qatʻiy nazar Oʻzbekiston Respublikasining fuqarolarini tashkil etadi deyilgan. [2] Bundan tashqari 4-19-33-35-moddalarida inson huquqlar, uning shaʼni, qadr-qimmat, millati, tili va dinidan qatʻiy nazar ularning huquqlari davlat himoyasida ekanligi belgilab qoʻyilgan. Shu oʻrinda davlat taʼlim muassasalarida oʻqitish 7 tilda olib borilmoqda. Oʻzbekiston Milliy teleradiokompaniyasi oʻz koʻrsatuv dasturlarini 12 tilda namoyish etmoqda. Oʻndan ortiq tilda gazeta va jurnallar nashr etilmoqda. Mamlakatimizda etnik oʻziga xoslikni rivojlantirish va millatlararo munosabatlarni yanada uygʻunlashtirishda 138 ta Milliy Madaniy Markazi yetakchi rol oʻynaydi. Ular oʻzlarining oʻziga xos madaniyati tili, xalq hunarmadchiligini rivojlantirib turli madaniyatlarning bir-birini oʻzaro boyitishga har birimizda koʻp millatli yagona oila tuygʻusining mustahkamlashga salmoqli hissa qoʻshmoqda.[3]

Xulosa oʻrnida shuni aytish lozimki, bagʻrikenglik nafaqat ijtimoiy munosabatlarni balki butun jamiyatning barcha sohalarining rivojlantirishda oʻrni boʻlakcha. Jamiyat hayotida har bir kishida oʻz xalqining tili, dini marosimlari anʼanalari qadriyatlarini erkin amalga oshira olsa oʻsha davlat, oʻsha millat tinch va totuv birdamlikda yashaydi. Bu barchasi millatlarning asosiy gʻoyasi va maqsadi hisoblanadi. Qadim-qadimdan xalqlar buning asil mohiyatini tushunishgan va aynan shuning uchun bugungi kungacha bagʻrikenglik tushunchasi oʻz ahamiyatini yoʻqotmagan. Gapimiz oʻrnida shuni qoʻshimcha qilish kerakki, davlatlarning rivojlanishi, tinchlik hukum surishi va ijtimoiy munosabatlarni barqaror

rivojlanishining tub negizida bag‘rikenglik tushunchasi yotadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekistonda millatlararo munosabatlar va tolerantlik. Toshkent. “GOTO Print” 2020. [28-29].
2. O‘zbekiston Respublikasi Konsititutsiyasi (yangi taxrir 30.04.2023).
3. Milliy g‘oya tarixi va nazariyasi. Toshkent, 2019. [369-381].